

**BITIRUVCHILAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA O'QUV  
JARAYONI VA ISH BERUVCHI TALABLARI MUTANOSIBLIGI**

*Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna*

*Oriental universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrası v.b.dotsenti, PhD*

*Xasanova Gulchehra Shomurotovna*

*Oriental universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda o'quv jarayoni va ish beruvchi talablari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Bugungi kunda mehnat bozori talablarining tez o'zgarib borishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda, ya'ni tayyorlanayotgan mutaxassislarining bilim va ko'nikmalari real sektor ehtiyojlariga mos bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, maqolada oliy ta'lim muassasalari faoliyatini mehnat bozori bilan uyg'unlashtirish masalalari dolzarb muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada o'quv jarayonini tashkil etishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ish beruvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ta'lim dasturlarini zamonaviy talablar asosida yangilash zarurligi asoslab beriladi. Xususan, dual ta'lim tizimini joriy etish, ishlab chiqarish amaliyotlarini kengaytirish va mutaxassslik fanlarini real ish jarayonlariga yaqinlashtirish muhim omillar sifatida tahlil etilgan. Shuningdek, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishda soft skills, ya'ni kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarining ahamiyati alohida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Bitiruvchilar raqobatbardoshligi, o'quv jarayoni, ish beruvchi talablari, mehnat bozori, kasbiy kompetensiyalar, amaliy ko'nikmalar, dual ta'lim, ta'lim sifati, oliy ta'lim tizimi, innovatsion yondashuvlar, soft skills.

**Annotation:** This article analyzes the theoretical and practical aspects of ensuring the balance between the educational process and the requirements of employers in increasing the competitiveness of graduates. Today, the rapidly changing demands of the labor market are setting new tasks for the education system, namely, the knowledge and skills of the specialists being trained must be in line with the needs of the real sector. In this context, the article considers the issues of harmonizing the activities of higher education institutions with the labor market as an urgent problem. The article justifies the need to form practical skills along with theoretical knowledge, establish effective cooperation with employers, and update educational programs based on modern requirements in organizing the educational process. In particular, the introduction of a dual education system, the expansion of production practices, and the

approximation of specialized subjects to real work processes were analyzed as important factors. The importance of soft skills, such as communication, critical thinking, teamwork, and problem-solving, in increasing graduates' competitiveness is also highlighted.

**Keywords:** Graduates, competitiveness, learning process, employer requirements, labor market, professional competencies, practical skills, dual education, quality of education, higher education system, innovative approaches, soft skills.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические и практические аспекты обеспечения баланса между учебным процессом и требованиями работодателя в повышении конкурентоспособности выпускников. Особое внимание также уделяется важности soft skills, таких как коммуникативные навыки, критическое мышление, работа в команде и решение проблем, в повышении конкурентоспособности выпускников в реальном секторе. В этой связи в статье рассматриваются вопросы гармонизации деятельности высших учебных заведений с рынком труда как актуальная проблема. В статье обосновывается необходимость формирования практических навыков наряду с теоретическими знаниями при организации учебного процесса, налаживания эффективного сотрудничества с работодателями и обновления образовательных программ в соответствии с современными требованиями. В частности, важными факторами были проанализированы внедрение дуальной системы образования, расширение производственной практики и приближение профильных дисциплин к реальным рабочим процессам. Особое внимание также уделяется важности soft skills, таких как коммуникативные навыки, критическое мышление, работа в команде и решение проблем, в повышении конкурентоспособности выпускников.

**Ключевые слова:** Выпускники конкурентоспособность, учебный процесс, требования работодателей, рынок труда, профессиональные компетенции, практические навыки, дуальное обучение, качество образования, система высшего образования, инновационные подходы, soft skills.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida mehnat bozori keskin o'zgarib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ish beruvchilar tomonidan qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashib, an'anaviy bilim va ko'nikmalar bilan cheklanib qolmayapti. Endilikda ish beruvchilar nafaqat nazariy bilimga ega, balki amaliy ko'nikmalarni puxta egallagan, mustaqil fikrlay oladigan, muammolarni tezkor hal etishga qodir va jamoada samarali ishlay oladigan mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim

vazifalardan biri – bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, ularni real mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlashdan iboratdir.

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda oliy ta'lim muassasalarida berilayotgan bilimlar bilan ish beruvchilarning real ehtiyojlari o'rtasida ma'lum tafovut mavjud. Bu esa bitiruvchilarning ishga joylashishida qiyinchiliklar tug'diradi, ularning kasbiy faoliyatga tez moslashishiga to'sqinlik qiladi. Mazkur muammo, ayniqsa, iqtisodiyotning tez rivojlanayotgan tarmoqlarida yaqqol namoyon bo'lib, malakali kadrlar yetishmovchiligi bilan birga, mavjud kadrlarning salohiyatidan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, o'quv jarayoni va ish beruvchi talablari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim jarayonining mazmuni va shaklini mehnat bozori talablariga moslashtirish orqali bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Bunda, avvalo, ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish zarur. Shuningdek, o'quv jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, ishlab chiqarish bilan uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi samarali integratsiya bitiruvchilarning muvaffaqiyatli bandligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Masalan, dual ta'lim tizimi, ya'ni o'qish jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish orqali talabalar o'z mutaxassisligi bo'yicha amaliy tajriba orttiradi va ish muhitiga tez moslashadi. Bu esa ularning ish beruvchilar uchun jozibadorligini oshiradi. Shu bilan birga, ish beruvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ularning fikrini inobatga olish ham muhim omil hisoblanadi.

Bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishda faqat kasbiy bilim va ko'nikmalar emas, balki shaxsiy fazilatlar ham muhim o'rin tutadi. Xususan, kommunikativlik, liderlik, jamoada ishlash, vaqtni boshqarish, moslashuvchanlik kabi ko'nikmalar zamonaviy ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida bunday ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu esa ta'lim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklab qo'ymasdan, balki talabaning shaxs sifatida rivojlanishini ham ta'minlashni talab etadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda o'quv jarayoni va ish beruvchi talablari mutanosibligini ta'minlash masalasi zamonaviy ta'lim tizimida eng dolzarb va ko'p qirrali ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashtirish va innovatsion iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri

– mehnat bozori talablariga mos, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta‘lim tizimi va iqtisodiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni, inson kapitalini rivojlantirish hamda raqobat ustunliklarini shakllantirish masalalarini chuqur yoritib beradi.

Iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalar nazariyasida Joseph Schumpeter [1] tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga ko‘ra, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri innovatsiyalar va bilim hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim tizimining sifatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash orqali iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Michael Porter [2] tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi nazariyasida mamlakatlar va tashkilotlarning raqobatbardoshligi inson kapitali, bilim va ko‘nikmalar darajasi bilan chambarchas bog‘liqligi ta‘kidlanadi. Ushbu nazariy yondashuvlar bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda ta‘lim jarayonining ahamiyatini asoslashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligini tashqi omillar bilan bog‘liq holda o‘rganishda A.Golik [3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda universitetlarning raqobatbardoshligi mehnat bozori, iqtisodiy muhit va ijtimoiy talablar bilan uzviy aloqada rivojlanishi qayd etiladi. Bu esa ta‘lim muassasalarining faoliyati ish beruvchilar ehtiyojlari bilan moslashgan holda tashkil etilishi zarurligini ko‘rsatadi. E.V.Maksimova [4] tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa talabalar raqobatbardoshligini rivojlantirish jarayoni ta‘lim tizimining ichki omillari, xususan, o‘quv jarayoni mazmuni va metodlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi asoslab berilgan. Muallif ta‘lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali talabalarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish mumkinligini ta‘kidlaydi.

Mehnat bozori va ta‘lim xizmatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi V.N.Vasilev, V.A.Gurtov va E.A.Pituxin [5] tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, ular mehnat bozori ehtiyojlari va ta‘lim tizimi o‘rtasidagi nomutanosiblik muammolarini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, mazkur nomutanosiblikni bartaraf etish uchun ta‘lim dasturlarini zamonaviylashtirish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. D.A.Konoplyanskiy [6] esa oliy ta‘lim bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishda davlat-xususiy sheriklikning muhim rol o‘ynashini asoslab beradi. Ushbu yondashuv ta‘lim jarayonini real iqtisodiy sektor bilan integratsiya qilish orqali bitiruvchilarning amaliy tayyorgarligini oshirish imkonini yaratadi.

Milliy tadqiqotchilar orasida Z.T.Jumayev [7] oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining sifatiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilib, ta‘lim sifati, o‘qituvchilarning malakasi va o‘quv jarayonining tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. K.X.Annaqulov [8] esa zamonaviy mehnat bozori talablarini sotsiologik tahlil qilish orqali bitiruvchilarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan ularning amaliy ko‘nikmalari va moslashuvchanligiga bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Shu

bilan birga, S.S.Gulyamova va K.X.Abdurahmonova [9] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim tizimining inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni alohida yoritilib, ta'lim sifatini oshirish orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish mumkinligi asoslab beriladi.

Ta'lim va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik K.S.Muxtarova [10] tomonidan ham tahlil qilingan bo'lib, muallif daromadlar taqsimoti va ijtimoiy tengsizlik masalalarini ta'lim bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi. Bu esa ta'lim tizimini takomillashtirish orqali nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammolarni ham hal etish mumkinligini ko'rsatadi. V.Manuylov va I.Fedorov [11] tomonidan taklif etilgan oliy ta'lim modellarida esa ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va mehnat bozori talablariga moslashuvchan tizim yaratish zarurligi ta'kidlanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya va moslashuvchanlik masalalari S.Qoraev [12] tomonidan o'rganilgan bo'lib, muallif ta'lim jarayonida turli fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali talabalarning kompleks bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligini asoslaydi. Bu esa bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda, xususan, S.F.Saloxitdinov [13] tomonidan mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlashning nazariy asoslari ishlab chiqilib, oliy ta'lim tizimi va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirish masalasi ko'p omilli jarayon bo'lib, u ta'lim tizimining samaradorligi, mehnat bozori talablariga moslashuvchanligi hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish darajasiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqotchilar ta'lim va ish beruvchilar o'rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirish, o'quv jarayonini amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Shu bois, o'quv jarayoni va ish beruvchi talablari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bitiruvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish va ularning mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda o'quv jarayoni va ish beruvchi talablari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalasi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uyg'unligiga asoslanib, mavjud ilmiy qarashlar, iqtisodiy va pedagogik yondashuvlar hamda mehnat bozori talablari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratildi. Avvalo, mavzu doirasida milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari va maqolalari tahlil qilinib, muammoning nazariy asoslari shakllantirildi. Shu orqali bitiruvchilar raqobatbardoshligini belgilovchi omillar hamda ta'lim tizimining ushbu jarayondagi o'rni aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuvdan foydalanilib, o'quv jarayoni, ta'lim sifati va ish beruvchi talablari o'zaro bog'liq elementlar sifatida ko'rib chiqildi. Shuningdek, taqqoslash usuli orqali rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy amaliyot o'rtasidagi farqlar o'rganilib, samarali mexanizmlar aniqlashga harakat qilindi. Statistika tahlil elementlari asosida mehnat bozori talablari, bitiruvchilarning bandlik darajasi va ularning kasbiy moslashuv ko'rsatkichlari umumlashtirildi. Bundan tashqari, kuzatish va umumlashtirish usullari yordamida o'quv jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish darajasi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori talablari va ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'lim menejmentining markaziy kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu bog'liqlik nafaqat iqtisodiy tizimning samaradorligini ta'minlash, balki inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion salohiyatni oshirish va jamiyatning barqaror taraqqiyotiga erishishda muhim omil hisoblanadi. Mehnat bozori talablarining dinamik xususiyatga ega ekanligi, ya'ni ularning texnologik o'zgarishlar, global integratsiya jarayonlari va iqtisodiy kon'yunktura ta'sirida muntazam ravishda yangilanib borishi ta'lim tizimini ham moslashuvchan va adaptiv bo'lishga majbur etadi.

Ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan qaraganda, mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, mehnat bozori ta'lim tizimiga talablar qo'yadi, ya'ni qanday kompetensiyalar, malakalar va bilimlar zarurligini belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, ta'lim tizimi mehnat bozorini shakllantiradi, chunki u orqali iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan kadrlar tayyorlanadi. Shu sababli ushbu ikki tizim o'rtasida muvozanatni ta'minlash strategik boshqaruvning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalari ushbu bog'liqlikni ta'minlovchi asosiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Ular o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, o'qitish metodlarini tanlashda va ta'lim natijalarini baholashda mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olishi zarur. Bu jarayon ta'lim menejmentida tashqi muhit tahlili, strategik rejalashtirish va

sifat menejmenti kabi boshqaruv funksiyalari orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali ta'lim tizimi mehnat bozori talablariga yanada yaqinlashadi.

Shuningdek, mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlashda davlat siyosati, ish beruvchilar bilan hamkorlik va ijtimoiy sheriklik mexanizmlari muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim standartlari, kasbiy malaka talablari va bandlik dasturlari ushbu jarayonni tartibga soluvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Ish beruvchilar esa o'z navbatida ta'lim tizimiga bevosita talab qo'yuvchi subyekt sifatida ta'lim mazmunini shakllantirishda ishtirok etadi. Natijada, mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni samarali tashkil etish orqali bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning ish bilan ta'minlanishini yaxshilash va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkin. Quyidagi jadvalda ushbu bog'liqlikning asosiy yo'nalishlarini keltiramiz (1-jadval):

## 1-jadval

**Mehnat bozori talablari va ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik<sup>1</sup>**

<b>№</b>	<b>Mehnat bozori talablari</b>	<b>Ta'lim tizimining natijalari</b>	<b>O'zaro bog'liqlik</b>
1	Amaliy ko'nikmalarga talab	Amaliy mashg'ulotlar va dual ta'limni joriy etish	Talabalar real ish sharoitiga moslashadi va ishga tayyor holatda bitiradi
2	Zamonaviy kompetensiyalar (soft skills)	Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim berish	Talabalar kommunikativ, liderlik va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi
3	Raqamli texnologiyalarni bilish	Raqamli ta'lim vositalarini joriy etish	Talabalar axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rganadi
4	Moslashuvchanlik va innovatsion fikrlash	Interaktiv va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish	Talabalar yangi vaziyatlarga tez moslasha oladi
5	Tarmoq mutaxassislariga ehtiyoj	Mutaxassisliklar bo'yicha o'quv dasturlarini yangilash	Ta'lim mazmuni iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashadi
6	Ish tajribasiga talab	Ishlab chiqarish amaliyoti va	Talabalar ish tajribasini o'qish jarayonida egallaydi

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan

		stajirovkalarni kengaytirish	
7	Global mehnat bozori talablari	Xalqaro standartlar va akademik mobillikni rivojlantirish	Bitiruvchilar xalqaro darajada raqobatlasha oladi
8	Doimiy malaka oshirish zarurati	Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish	Bitiruvchilar o'z bilimini doimiy ravishda yangilab boradi

Mehnat bozori talablari va ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi yuqoridagi jadval zamonaviy ta'lim menejmenti konsepsiyasining muhim metodologik asoslarini aks ettiradi. Xususan, amaliy ko'nikmalarga bo'lgan talabning ortib borishi ta'lim jarayonini tashkil etishda paradigmatik o'zgarishlarni talab etmoqda. An'anaviy bilim berishga asoslangan model o'z o'rnini kompetensiyaviy va amaliy yo'naltirilgan yondashuvlarga bo'shatib bermoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, ularga amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, keys-stadi metodlari va ishlab chiqarish amaliyotlarini keng integratsiya qilishni taqozo etadi. Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, aynan amaliy komponentlar ulushi yuqori bo'lgan ta'lim dasturlarida tahsil olgan bitiruvchilar ishga joylashish jarayonida ancha ustunlikka ega bo'ladi. Chunki ular real ish muhitiga moslashish uchun qo'shimcha tayyorgarlik bosqichini kamroq talab etadi. Bu esa ish beruvchilar uchun vaqt va resurs tejaliyishini ta'minlaydi hamda bitiruvchining mehnat unumdorligini tezroq namoyon etishiga imkon yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim tizimiga joriy etilishi esa ta'lim menejmentida sifatni boshqarishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur yondashuvda ta'lim natijalari faqat o'zlashtirilgan nazariy bilimlar bilan emas, balki shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalar majmui orqali baholanadi. Bu esa ta'lim tizimini yanada natijador, ya'ni "natijaga asoslangan ta'lim" modeliga yaqinlashtiradi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiyalar, jamoada ishlash qobiliyati, liderlik salohiyati va muammolarni tizimli hal etish ko'nikmalari zamonaviy ish beruvchilar tomonidan ustuvor mezon sifatida qaralmoqda. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, aynan ushbu soft skills elementlariga ega bo'lgan bitiruvchilar professional faoliyatda tezroq adaptatsiyalashadi va tashkilot ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga samarali integratsiyalashadi. Shu sababli ta'lim menejmentida ushbu kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan interaktiv pedagogik texnologiyalar, treninglar va loyiha asosidagi o'qitish metodlarini keng joriy etish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalarni egallash bilan bog'liq talablar esa zamonaviy mehnat bozori transformatsiyasining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida deyarli barcha kasblar axborot texnologiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu bois ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni



shakllantirish strategik ustuvorlikka ega. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy o'qitish tizimlari, sun'iy intellekt elementlari asosidagi o'quv vositalari va raqamli baholash tizimlari orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshirilmoqda. Amaliy jihatdan bunday transformatsiya natijasida bitiruvchilar nafaqat o'z kasbiy yo'nalishi bo'yicha, balki raqamli muhitda ishlash bo'yicha ham yetuk mutaxassisga aylanadi. Bu esa ularning global mehnat bozorida ham raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish ta'lim menejmentida monitoring, tahlil va qaror qabul qilish jarayonlarini ham avtomatlashtirish imkonini beradi.

Moslashuvchanlik va innovatsion fikrlash kompetensiyalarining shakllanishi esa zamonaviy iqtisodiyotning noaniqlik sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Bozor sharoitlarining tez o'zgarishi, yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va ish jarayonlarining transformatsiyasi mutaxassislardan tezkor qaror qabul qilish va yangi vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatini talab etadi. Ta'lim tizimida ushbu sifatlarni rivojlantirish maqsadida muammoli vaziyatlarga asoslangan o'qitish, kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar va startap loyihalar bilan ishlash keng qo'llanilmoqda. Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv asosida tayyorlangan bitiruvchilar yangi ish sharoitlariga tezroq moslashadi, innovatsion g'oyalarni ilgari suradi va tashkilot rivojiga sezilarli hissa qo'shadi.

Global mehnat bozori talablariga moslashish masalasi ham jadvaldagi bog'liqlikning muhim jihatlaridan biridir. Bugungi kunda mutaxassislar faqat milliy emas, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatlashmoqda. Shu sababli ta'lim tizimi xalqaro standartlarga moslashishi, akademik mobillikni rivojlantirishi va xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, xalqaro dasturlarda ishtirok etgan talabalar va bitiruvchilar mehnat bozorida yuqori baholanadi, chunki ular global kompetensiyalarga ega bo'ladi. Bu esa ularning kasbiy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda o'quv jarayoni va ish beruvchi talablari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud muammolarning asosiy sababi ta'lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlaridan ortda qolayotgani, amaliy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi hamda ish beruvchilar bilan samarali hamkorlikning to'liq yo'lga qo'yilmaganligidir. Shu bois, mazkur yo'nalishda tizimli va kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur.

Avvalo, oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini muntazam ravishda yangilab borish va ularni ish beruvchilar talablari asosida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda yirik korxonalar, tashkilotlar va soha mutaxassislari o'quv rejalari ishlab chiqish jarayoniga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, ta'lim

jarayonida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, ishlab chiqarish amaliyotlarini real ish sharoitlariga yaqinlashtirish hamda dual ta’lim tizimini keng joriy etish zarur. Bu talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlash va ularning mehnat bozoriga tez moslashishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishda soft skills ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Xususan, kommunikativlik, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirish zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. To‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlarini yaratish, qo‘shma loyihalar va innovatsion platformalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Umumiy qilib ta’kidlash joizki, o‘quv jarayoni va ish beruvchi talablari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash orqali nafaqat bitiruvchilarning bandligi oshadi, balki milliy iqtisodiyot tarmoqlari yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlanadi. Bu esa mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

### 1. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

2. Joseph Schumpeter. The Theory of Economic Development. (Monograph). Harvard University Press, 1934. 255 p.
3. Michael Porter. The Competitive Advantage of Nations. (Monograph). Free Press, New York, 1990. 896 p.
4. Голик А. Система внешних факторов конкурентоспособности университетов. // Высшее образование в России – 2022. – № 7. – с. 131-134.
5. Максимова Е.В. (2005) Развитие конкурентоспособности студента в образовательном процессе университета: автореф.дис. канд.пед.наук. Оренбург, 14-16 с.
6. Василев В.Н., Гуртов В.А., Питухин Е.А. и др. Рынок труда и рынок образовательных услуг в субъектах РФ.- М.: Техносфера, 2007.- 680 с.
7. Коноплянский Д.А. Формирование конкурентоспособности выпускника ВУЗа в процессе обучение: роль государственно-частного партнерства. Вестник КемГУКИ 33/2015.-179 с.
8. Jumaev Z.T. (2016) Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining sifatiga ta’sir etuvchi omillar. Journal of “Irrigation and melioration” №4(6). 73 B.
9. Annaqulov K.X. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligi: zamonaviy mehnat bozori talablarining sotsiologik tahlili // “Academic Research in Modern Science” xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya materiallari, 2023-yil.
10. Гулямова С.С., Абдурахмонова К.Х. (2004) Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Ташкент.– 34-35 с.

11. Мухтарова К.С. (2001) Распределение доходов и бедность в переходной экономике. – Алматы, – 223 с. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018.
12. Мануйлов В., Федоров И. Модели // Высшее образование в России. – 2020. №2.
13. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. “Education, Science and Innovation,” 2 (2), 45-50.
14. S.F.Saloxitdinov. Mehnat bozoriga oliy ta’lim muassasalari tomonidan bitiruvchilarni tayyorlashni tartibga solishning nazariy asoslari // “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” ilmiy elektron jurnali 2024-yil, noyabr. № 11-son. 282–288-betlar.